



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarni shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K:17.022.1:008(575.1)

TA'LIM-TARBIYADA QO'SHIQNING O'RNI

Karimova Mavlyuda Madaminovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek xalq ijodiyotida va og'zaki an'anasida yaratilgan klassik musiqa asarlari haqida so'z boradi. Shoirlar yaratgan she'rlar hamda xalqimizning o'zi yaratgan va bevosita ijro etib kelgan qo'shiqlarning hammasi axloqiy-estetik tarbiya uchun xizmat qilgan. Binobarin, o'tmishda O'rta Osiyo xalqlari uchun qo'shiq va she'riyat tarbiya rolini o'ynagan. Qo'shiqlarda odob, axloq, mardlik, vatanparvarlik, ota-onaning qadriga yetish g'oyalari ilgari surilgan. Do'stlik, saxiylik va xasislik haqida yozilgan g'azallarni hofizlarimiz ham ijro etib kelishgan. Asarlarning chuqur g'oyaviyligi, badiiy barkamolligi bugungi kun tomoshabinlarini hayajonga soladi, o'ziga jalb etadi. O'zbek milliy metodining ijodiy mohiyatini anglash – yuksak badiiy ijrochilikda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U ijodkordan voqelikni o'zbekona rivojlanishda konkret, haqqoniy tarzda yoritishni talab qiladi. Inson hayotini, uning tuyg'ularini, o'y-fikrlari, tashvish-quvonchlarini chuqur bilish, uni o'z ijodida real ko'rsata olish madaniyat xodimlari uchun murakkab va mas'uliyatli vazifadir.

Kalit so'zlar:

emotsional bo'yoqli so'zlar, talaffuzi, fikr mazmuni, tembr, jaranglash strukturasi, asarning g'oyaviy-badiiy qiymati, sipohiyalar, xushzabon, axloqiy-estetik did, sozandayu go'yanda, baxshilar.

Аннотация.

Произведения классической музыки и поэтов, созданные в узбекском народном творчестве и устной традиции, а также песни, созданные и исполненные непосредственно самим нашим народом, служили нравственно-эстетическому воспитанию. Следовательно, в прошлом песня и поэзия играли воспитательную роль для народов Средней Азии. В песнях выдвигаются идеи порядочности, нравственности, мужества, патриотизма, родительской ценности. Наши народные певцы (хафизы) также исполняли Газели о дружбе, щедрости и скупости. Глубокая идейность, художественное совершенство произведений волнуют, увлекают сегодняшнюю аудиторию. Понимание творческой сущности узбекского национального метода – играет решающую роль в высоком художественном исполнении. Он требует от создателя конкретного, правдивого освещения действительности в узбекском развитии. Глубокое знание жизни человека, его чувств, мыслей, переживаний, радостей, умение реалистично показать ее в своем творчестве – сложная и ответственная задача для работников культуры.

Ключевые слова:

слова с эмоциональной окраской, произношение, содержание мысли, тембр, структура звучания, идейно-художественная ценность произведения, Сипахизм, благожелательность, морально-эстетический вкус, созандаю го'янда, бахши.

Abstract.

Works of classical music and poets created in Uzbek folk art and oral tradition, as well as songs created and performed directly by our people themselves, served moral and aesthetic education. Consequently, in the past, song and poetry played an educational role for the peoples of Central Asia. The songs promote the ideas of decency, morality, courage, patriotism, and parental values. Our folk singers (hafiz) also performed Ghazals about friendship, generosity and avarice. The deep ideological and artistic perfection of the works excite and captivate today's audience. Understanding the creative essence of the Uzbek national method plays a crucial role in high artistic performance. It requires the creator to provide specific, truthful coverage of the reality in Uzbek development. A deep knowledge of a person's life, his feelings, thoughts, experiences, joys, and the ability to show it realistically in his work is a difficult and responsible task for cultural workers.

Keywords:

emotional coloring words, pronunciation, content of thought, timbre, ringing structure, ideological-artistic value of the work, gypsies, sympathetic, moral-aesthetic taste, as the saying goes, the bakhshis.

Jamiyatimiz moddiy bazasining yuksalish, texnika taraqqiyoti, madaniyat va san'atning o'sishi o'zbek milliy ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitishga xizmat qilmoqda. Teatr, ta

operaga, estradaga muhabbat qo'yish, badiiy havaskorlik ansamblarga qatnashish yoshlarni madaniyati o'sayotganligidan, hayot va san'atning eng go'zal tomonlari bilan muloqotda bo'lishga ishtiyoqi tobora oshib borayotganligidan dalolat beradi. Adabiyot, tasviriy san'at, musiqaning har bir yangi asari yoshlarda katta qiziqish uyg'otadi, munozaralarga, bahslarga sabab bo'ladi. Asarlarga baho berish madaniyat xodimlari ijodiy darajasini oshirishning mezoni bo'lib xizmat qiladi [1].

Ma'lumki, qo'shiq insonlarni, ayniqsa yoshlarni estetik tarbiyalashda g'oyat katta rol o'ynaydi. Har bir qo'shiq inson ruhiga ta'sir etganida uni tetiklantiradi, olijanob his-tuyg'ular uyg'otadi, mehnatda jasorat qo'rsatishga, zafarlarga undaydi. Shuning uchun qo'shiq tinglaganda kishi huzur qiladi. Qoshiq ijro etayotgan xonanda esa o'zining xushovozi, musiqiyliigi, aktyorlik iqtidori bilan turli emotsional holatdagi insonning vocal sahna obrazini yaratadi.

Hayotiy real obrazlar yaratishi uchun xonanda emotsional bo'yoqli so'zlarni aniq, tiniq talaffuz etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. So'z bugungi kunda qo'shiqchilikda eng muhim muammolaridan biridir. Afsuski, ko'pgina mohir xonandalarning so'zlarni talaffuz etishi talab darajasida emas. Zeroki, so'zlar talaffuzi o'zining fikriy mazmuni, tembrining jaranglash strukturasi ko'ra qo'shiqchilikda muhim ahamiyatga ega. So'z va uning mantiqiy-emotsional bo'yoqlari tomoshabinlarni faqat asar mazmuni bilan tanishtiribgina qolmay, uning g'oyaviy yo'nalishini ham belgilab beradi. Agar ijrochi lektsiyasi yuksak badiiy texnika darajada bo'lmasa, eshituvchilar asarning g'oyaviy-badiiy qimmatini anglab etmaydilar.

Shuni aytish kerakki, har bir yaxshi qo'shiq insonni ulug'laydi, uning olijanob mehnati, pok tuyg'ulari, intilishlari, xalqqa va Vatanga muhabbati, go'zallik va yaxshilikka bo'lgan ishtiyoqini madh etadi, nafosat tuyg'usini hosil qiladi. Qo'shiq yosh avlodga estetik jihatdan tarbiya berishda qudratli va ta'sirchan qurolidir.

Tarixga nazar tashlasak, O'zbek xalq ijodiyotida va og'zaki an'anada yaratilgan klassik musiqa asarlari va shoirlar yaratgan sherlar hamda xalqimizning o'zi yaratgan va bevosita ijro etib kelgan qo'shiqlarning hammasi axloqiy-estetik tarbiya uchun xizmat qilgan.[2] Binobarin, o'tmishda O'rta Osiyo xalqlari uchun qo'shiq va she'riyat tarbiya rolini o'ynagan. Qo'shiqlarda odob, axloq, mardlik, vatanparvarlik, ota-onaning qadriga yetish g'oyalari ilgari surilgan. Do'stlik, saxiylik va xasislik haqida yozilgan g'azallarni hofizlarimiz ham ijro etib kelishgan. Shunday qo'shiqlardan biri Fuzuliyning "O'lmas" deb nomlangan g'azalidir:

Adab savr rishtasin tutgil, adobdan yaxshi ros o'lmas,
Adobsiz ikki olamda bilinki sarfarozi o'lmas.
Tavozi pasha qilg'il gar shikasta alomda kasb aylab,
Mabodo kosoyi zarin bahosi sinsa oz o'lmas.
Havoga uchma ey, ko'ngil, qushi monanda anqodek,
Baland uchgan bilan zog'u zog'on olamda boz o'lmas.
Fuzuliy ikki olamda muhabbat oshnosi bo'l,
Muhabbatsiz kishini ko'ngli qishdir, aslo yoz o'lmas.

O'zbekiston xalq hofizi Jo'raxon Sultonov, aka-uka Shoqosim, Shoolim, Shoakbar Shojalilovlar, Rasulqori Mamadaliyev, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, aka-uka Akmalxon, Boboxon So'pixonovlar, Orifxon Hotamov, Fattoxxon Mamadaliyev, Orif Alimahsumov, Sherali Jo'rayev kabi juda ko'plab taniqli hofiz xonandalar inson tarbiyasiga doir bunday qo'shiqlarni o'z repertuarlaridan aslo tushirishmagan.

Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan g'azal va qo'shiqlarni Maxtumquli ijodida ham ko'plab uchratamiz. Maxtumquli Turkman xalqining sevimli shoiri bo'lib, XVIII asrda yashab ijod etgan. U g'azallarida mardlikni ulug'laydi, nomardlikni esa qoralaydi, yaxshi-yomon kishilarning salbiy, ijobiy xususiyatlarini ro'yi-rost ko'rsatib bergan. U "Ko'ring" radifli g'azalida nafs balosiga uchrashni, behuda yurishni, biror falokatga tushib qolishni qoralaydi. Shu bilan birga yaxshi kishilar o'zgalar diliga ozor bermasligi, mardligi, ularning ko'nglida gidir bolmasligini na'kidlaydi. Yomon odamning marosimlarda janjal chiqarib ko'pchilikning ta'bini xira qilishini, urishib yurishini tanqid qiladi, dilozorlikni qoralaydi. Bu g'azalda Maxtumquli mard, nomard kishilarning qanday bo'lishi, hayotda ularni sinab so'ng oshna bo'lish kerakligi to'g'risida yozadi:

Har yigitning aslin bilay desangiz,
Ma'rakada o'tirib turishin ko'ring.
Birov bilan oshno bo'lay desangiz,
Avval o'z so'zida turishin ko'ring.
Mard yigitning ishi suhbat-soz bo'lur,
Ko'ngli qish bo'lmay doim yoz bo'lur.
Yaxshini ko'nglida gina oz bo'lur,
Yomonni kunda bir urushin ko'ring.

Maxtumquli o'zga yurtlarda behuda izg'ib yurishni ayblaydi va qoralaydi. Nomardlar senga oshnoman deb ichingga kirib olib biror siring bo'lsa bilib, bir kuni seni sharmanda qiladi, har qanday falokat, yomon ishlar boshingga tilingdan keladi, deb dashnom beradi:

Mastona yurguncha g'ayri yurtlarda,
Unib o'sgan o'z yurtingdan ayrilma.
Bir mag'rur kaklidayin nafs urib,
Domga tushib qanotingdan ayrilma.
Nomardlar ham muxammaslar nochorlar,
Taoming yeb ishing bo'lsa qocharlar.
Siring bilib aybingni ocharlar,
Ta'lim bergan ustozingdan ayrilma.

XVIII asrda yashab ijod etgan taniqli Turkman shoirlaridan biri G'oyibnazar G'oyibiy, hayotini asosan O'zbekistonning hozirgi Qorako'l tumanida o'tkazgan. U she'rlariga o'zi kuy bastalab, o'zi soz chalar edi. Ijodkorning sozandayu baxshilarni Buxoro amirining g'azabidan saqlab, ularni o'lim xavfidan qutqarib qolishi haqidagi rivoyat juda qiziqarli.[3]

Qadim zamonlarda Buxoroi sharifda kunlarning birida Oy va Quyosh tutilib, jahonu olamni qorong'ulik bosadi. Amir hazratlari sipohiylardan:

- Bu qanday ahvol bo'ldi? – deb so'radi. Sipohiylar:
- Bu ahvolni ulamolar, fuzalolar yaxshi bilurlar, - deb javob beradilar.

Amir darhol ulamoyu fuzalolarni chaqirtirib, voqeaning sababini so'raydi. Ulamolar:

- Shu zamonda sozandayu go'yanda, baxshilar, shoirlar ko'payib ketgan. Balki, shul sababdan bo'lsa kerak, - deydilar. Shundan so'ng amir Buxoro chor atrofiga: "Sozandayu baxshilar, shoirlar kelsin, barchasiga sarmo-chopon beramiz, to'y-tomoshimiz bor", - deb chopar yo'llaydi. Saroyga 200 ga yaqin san'atkor va shoirlar to'planadi. Yaxshi niyat bilan kelganlarga qarata amiri olam: "Sizlarga baxshilik, shoirlilik qilish bugundan boshlab man qilinadi", - deb buyruq beradi. Shunda xushzabon, ochiq yuzli, himmati baland baxshi shoirlardan Mulla G'oyib o'rtaga chiqib, amir huzurida quyidagi she'rni o'qiydi:

Soz bilan suhbatning qadriga yeting,
Odam Ato bunyod bo'lganda bordir.
Farzandlar o'stirib Momo Havomiz,
Hobil, Qobil bunyod bo'lganda bordir.
Mullalar tarqalib ketdilar hamma,
Adolat deganning ma'nosi nima?
Shunday adolatli Sulton Jumjuma,
Dunyoning lazzatin ko'rganda bordir.
Jamiki odam bor, har kim har ishda,
Orzusi yer yuzin tutmoq sarishta.
Xorut-Morut degan ikki farishta,
Bobilning chohiga tushganda bordir.

Buxoro amiri shu she'rni eshitib, qahridan tushadi va adolat yuzasidan: "Hazrati Odam Ato, Momo Havomiz va barcha payg'ambarlar podshohlik zamonida ham bu shoirlilik, musiqa, ashula baxshilik bor kasb-kor bo'lsa, bizlar ham ulardan ortiq emasmiz. Bizlardan zarur hojatingizni tilang, arzingizni ayting!" - deb to'plangan san'atkoru shoirlarga muruvvat ko'rsatadi.

Mulla G'oyib yana bir sherida nasihat qilib insonlarga doim mehribon bo'l, mehritoshlikdan ne foyda, yaxshi bo'l, odamlarga doim hamdam bo'l, yomonlikdan nima foyda ko'rsan, deya haqiqiy insonni ulug'laydi:

Ey ko'ngil, mehr ila bo'l, nomehribonlikdan na sud,
Yaxshi bo'l, yaxshiga hamdam bo'l, yomonlikdan na sud.
Yaxshilik fikrida bo'l, tark et yomonlik fikrini,
Yaxshi niyat xayr o'lur, bil, badgumonlikdan na sud.

O'tmishdagi buyuk mutafakkir shoirlar Alisher Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Goyibiy, Muqumiy, Furqat kabi siymolarning say'-harakatini Uyg'un, Sobir Abdulla, Hamid Olimjon, Habibiy, Chustiy singari ijodkorlar davom ettirishdi. O'z asarlari bilan insonlar qalbidan chuqur joy

olgan shoirlarimizdan A.Oripov, E.Vohidovlarning she'rlarini bugun sahnaga chiqqan havaskorlardan tortib to ustoz xonandagacha – hamma ijrochilar o'z sozi va o'z ovozi bilan elu yurtga yetkazmoqda. Taniqli shoirimiz Chustiyning do'st tanlash, do'st qadriga yetish, ota-ona qadriyatini ulug'lashda, ular roziligida ish tutishga da'vat etgan qo'shiqlari badiiy havaskorlik ansambllarida ijro etilayotganligi ham diqqatga sazovordir:

Har yigitni imtihon et oshno bo'lmay turib,
So'ngra undan ajrama umring ado bo'lmay turib.
Dori nomin olmagay har bir giyoh ham el aro,
Har nafas el dardiga butkul davbo bo'may turib
Yoru do'stingu zamon senga bo'mas rizo,
Ota-onang avvalo sendan rizo bo'lmay turib.

Ijrochilar repertuarida tanqidiy xalq qoshiqlari ham ko'p uchraydi. Bunday qo'shiqlardan o'tmishda bo'lgani kabi hozirda ham xalq marosimlarida, to'y-tomoshalarida keng foydalanilmoqda. Xalqimiz nasihat, hazil-mutoiba, tanqidiy qo'shiqlarni jon qulog'i bilan eshitadi. Ba'zi bosar-tusarini bilmay kolgan yoshlarni tarbiyalashda bunday qo'shiqlarning ahamiyati katta, albatta.

Ota-onaga mehr-oqibat, his-tuyg'ularni uyg'otuvchi qo'shiqlar yoshlarni odamiylik, insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi, shu bilan birga ulardagi axloqiy-estetik didni ham shakllantiradi. Ota-onaning qadriga yetish esa Vatanga, Millatimizga sodiq bo'lish demakdir [4].

Joningizga jon bo'lay jonimga darmonim Otam,
Kamtarin piru badavlat, shavkatu shonim Otam,
Gul hayoti ko'rki yorqin davru davronim Otam,
Davlatim pokiza vijdon, usta bog'bonim Otam,
Siz bilan yo'q zarracha, ko'ksimda armonim Otam.

Shoir Akmal Po'lat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valixo'jayeva F.B. "Ta'lim muassasalarida bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash". Journal of Education, Ethics and Value 2005. – B.7. 5
2. Abdurauf Fitrat. "O'zbek klassik musiqasi tarixi". Toshkent: Fan. 1993.
3. Самойлович А.Н. «Как мулла Гаиб спас Бухаре музыку и поэзию». 1989.
4. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent: "Fan va texnologiya". Darslik. 2018. 77-b.

